

PAPER

TOG‘AY MUROD ASARLARIDA BARQAROR BIRIKMALARNING QAHRAMON RUHIY HOLATINI OCHIB BERISHDAGI O‘RNI

Boboyorova Dilrabo Kamolovna^{1,*}

¹ Buxoro xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti

* diliboboyorova@mail.ru

Abstract

Ushbu maqolada milliy xarakter yaratishda barqaror birikmalardan foydalanishning ahamiyati xususida so‘z yuritiladi. Nutqda maqol , matal kabi vositalardan foydalanish milliy xarakter yaratishda personajlar nutqi alohida ahamiyat kasb etadi. Personajlar nutqi badiiy asar tilining tarkibiy qismi bo‘lib, u tipikligi va individualligi, obrazlilik bilan har bir shaxsning dunyoqarashini, tajribasini, xulq-atvorini, ma’naviyatini, salohiyatini, deyarli, butun borlig‘ini mubolag‘ali va ishonchli qilib ko‘rsatadi.

Key words: muallif, obraz, milliy xarakter, nutq, voqelik, maqol, milliy urf-odat, milliy qadriyat.

Kirish

Insoniyatni anglashda, uni tushunishda badiiy adabiyotning o‘rni beqiyos. Chunki aynan adabiyot insonga o‘zini tashqi tomondan kuzatish ,tahlil qilish imkonini beradi. Badiiy adabiyot qay maqsadda yaratilishidan qat‘i nazar, u ma‘lum bir personajning xarakterini turli xil badiiy vositalar yordamida ochib beradi. Ayniqsa, milliy xarakterni yoritishda o‘zbek xalq maqollarining o‘rni beqiyos. Iste‘dodli yozuvchi Tog‘ay Murod o‘z asarlarida xalq tilidagi barqaror birikmalardan unumli foydalanadi. Adibning “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romani turli

xil maqol-u matallarga, ibora-yu qochirimlarga boyligi bilan ajralib turadi. Romandagi o‘ziga xos jihatlardan biri faqat surxondaryoliklar nutqida uchraydigan barqaror birikmalarning qo‘llanishidir. Bu holat asarga ajib bir o‘zgachalik bag‘ishlab , qahramonlarning milliy xarakterini ochib berishga xizmat qilgan. Aytish joizki, “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romani mustaqillik davri adabiyotining nasrdagi ulkan yutuqlaridan biridir. Romanda bir siyosiy tuzumning ikkinchi bir siyosiy tuzumga o‘rnini bo‘shatib berishi, odamlarga qanday ta‘sir etishi mohirona ochib berilgan. Ayniqsa, asar qahramoni Botir qo‘shchini sobiq tuzum siyosiy

Compiled on: December 17, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to Advances in Science and Education for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](#).

faol darajasiga ko'targuncha ancha-muncha ter to'kadi. Qisqasi, Botir qo'shchining o'rtoq Esonov bo'lguncha bosib o'tgan yo'li asarda quyidagicha tasvirlanadi:

-Qodir qulni chevarasi, Xolmat malayni nevarasi, Eson xizmatkorni bolasi Botir qo'shchi tumandan aynib keldi [firqa bo'lib keladi];

-Botir firqa O'zbekiston poytaxti Samarqandda olti oylik siyosiy o'qishni bitirib keldi;

-Botir firqa Toshkentda to'qqiz oylik siyosiy o'qishni tamomlab keldi;

-Botir firqa oliy partiya maktabida o'qib keldi.

Bu "kamolot" yo'li "Botir firqa o'z arizasi bilan pensiyaga jo'nadi" jumlasini bilan intiho topadi. Albatta, partiya kamolotga yetkazgan sobiq bir rahbarning yangi tuzumni qabul qilishi yengil ko'chmaydi. Ammo yozuvchi qahramon ruhiyatidagi evrilishlarni shunday mohirona tasvirlaydiki, kitobxonda Botir firqaga bo'lgan qarash o'zgarib boradi. Adib bunda barqaror birikmalardan unumli foydalanadi.

Asar "Tagi ko'rmaganga gilam bitmasin" maqoli bilan boshlanadi. Aynan shu barqaror birikmaning o'ziyoq kitobxonda bosh qahramonga bo'lgan salbiy hissiyotni paydo qiladi. Bu barqaror birikma quyidagi mazmunni bildiradi:

"tagi ko'rmagan"— mehnat qilmagan, harakat qilmagan, tirishmagan odam degan ma'noda ishlatiladi. "Gilam bitmasin"jumlasini esa — rohat-topmasin, boylik, naf topmasin degan iboraviy ifodadir.

Mehnat qilmaydigan, harakat qilmaydigan odamga hech qanday ne'mat, rohat yoki boylik nasib qilmasin degan duoga o'xshash, tanqidiy ma'noda aytiladi.

Bu maqol odatda dangasa, harakat qilmasdan nimagadir erishmoqchi bo'lgan, boshqalarning mehnatini qadrlamaydigan kishilar haqida aytiladi. Xalq orasida bu maqolning "Ko'rmaganning ko'rgani qursin " varianti ham keng qo'llaniladi. Asarda esa bu maqol Botir firqaning mansab tekkach o'zini yo'qotib qo'ygan odam sifatida tasvirlashga xizmat qilgan.

Aynan Botir firqaning asli kimligini ochib berishda hamqishloqlaridan birining tili bilan "Otangni ko'rdim Ahmadi forig', enangni ko'rdim to'voni yoriq" maqoli ishlatilgan . Mazkur maqol ko'pincha kibr qilayotgan yoki o'zini boshqalardan yuqori ko'rsatmoqchi bo'lgan odamga nisbatan

aytiladi. Asar muqaddimasida Botir firqa xuddi ana shunday asli kimligini bilmagan kibrli odam sifatida namoyon bo'ladi. Qahramonning tumandan firqa bo'lib qaytgani va o'z nomiga bu nisbatni qo'shib aytishlarini talab qilgani har bir amaldorga xos kibr, mansabparastlik belgisidir. Ammo kitobxon asarni o'qish davomida Botir firqaning yillar davomida o'zligini, o'z millatini saqlab qolishga uringanini , bu yo'lda ba'zan yutib chiqqan bo'lsa, ba'zan yutqizganiga guvoh bo'ladi. Botir firqa yoki uning hamsuhbatlari tilidan aytilgan har bir frazeologik birikma maqol va matallar qahramonning davr bilan hisoblashishda qanday qiynalayotganini uning o'z burchiga sodiq qolish uchun qilgan ayblari oldida bugun hisob berishga majburligini yoritishga xizmat qilgan. Yozuvchi bosh qahramonni shunday gavdalantirganki, kitobxon mutolaa davomida Botir firqani yomon ko'rib qolmaydi, undan nafratlanmaydi. Asar boshida uning xatti-harakatlaridan ensasi qotgan, qiliqlaridan ba'zida kulgan, ba'zida ijir'angan bo'lsa, asar oxirlariga kelib kitobxon qahramonga xayrixoh bo'lib qoladi. Yozuvchi Botir firqa xatti-harakatlarini to'g'ri tushunish hatto ba'zi o'rinlarda uni qo'llab-quvvatlash uchun kitobxonga hech qanday tazyiq o'tkazmaydi. Shunchaki qahramon nutqida xalqona maqollardan keng foydalanadi. Garchi asar qahramoni mas'ul lavozimdagi shaxs sanalsa-da biror o'rinda u tomonidan uzundan uzoq monologlar aytilmaydi. Asarda Botir firqa atigi 4-5 personaj: ayoli, eshonning bevasi, sobiq hamkasbi shifokor va go'rkov bilan muloqotda bo'ladi. Lekin mana shu ozchilik bilan bo'lgan muloqotlar ham Botir firqa kechinmalarini to'liq ochib berishga xizmat qiladi. Aynan shu obrazlar bilan suhbatda qahramon tilidan bir qancha barqaror birikmalar ishlatiladi. Ayniqsa, ayoli asarning boshdan oxirigacha erini qo'llab-quvvatlaydigan aqlli rafiqa sifatida tasvirlanadi. Bu esa o'z navbatida asarda milliy xarakterning jonli ko'rinsihda gavdalantirishga xizmat qilgan. Kampir bilan suhbatda firqa ko'proq ikki mavzuda: yosh demokratlar va Dilbar Mirzaxo'jayeva haqida suhbatlashadi. Jamiyatdagi siyosiy tuzum o'zgarishi bilan buqalamundek o'zgarib olgan bu ikki qahramon haqida o'ylaganda yoki ularning minbarga chiqib so'zlagan ohanjamali nutqini eshitganda Botir firqa tabiatida g'alati bir holat sodir bo'ladi. U o'zidagi bu isyonni kampiriga so'z

bilan ifodalar ekan o'z nutqida bir necha marta salbiy ottenkali frazeologik birliklar ishlatadi:

G'animat g'arniki

G'ar qarisa otin bo'ladi

Buzuqi qarisa –da g'amzasi qarimas

Shartaki bo'l, samarasta bo'l, evi bilan bo'l-da!

Muallif Botir firqa xarakteridagi o'ziga xosliklarni, ichki dunyosida bo'layotgan konfliktlarni qahramonning o'z-o'zi bilan bo'layotgan suhbatlari davomida ishlatgan maqol, matal, iboralar orqali keng va ifodali yoritib beradi.

Xo'roz hamma joyda bir xil qichqiradi [bu bn Botir firqa o'ziga tasalli beradi]

Boboning tol ekkani , o'ziga nom ekkani [o'z ishidan mamnunlik hissi, tuyg'usi]

Yaxshidan bog' qoladi [o'z amalidan faxrlanish, g'ururlanish]

Cho'kayotgan odam cho'pga yopishadi [ilinj]

Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq [davrga moslashis]

Yuqoridagi barqaror birliklarning barchasi asarda qahramonning milliy xarakterini yoritishga xizmat qilib qolmay, balki kitobxon bilan qahramon orasida yaqinlikning ham paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, barqaror birikmalar badiiy asarda qahramonning xarakterini, uning o'ziga xosligini ochib beruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Milliy xarakterni shakllantirishda xalq donoligini ifodalovchi vositalar: maqol, matal, iboralar katta ahamiyatga ega. Chunki bu birliklar obrazlar nutqi badiiy asar tili , qahramonning tipikligi va individualligi, obrazlilikini ochib berish bilan birga asardagi har bir shaxsning dunyoqarashini, tajribasini, xulq-atvorini, ma'naviyatini, salohiyatini, deyarli, butun borlig'ini mubolag'ali va ishonchli qilib ko'rsatadi.

Chunki badiiy asarda qatnashadigan har bir obrazning nutqida uning ruhiy kayfiyati, his-tuyg'ulari ham aks etadi, shuning uchun ham so'z – xarakter ko'zgusi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xudoyberdiyev E. «Adabiyotshunoslikka kirish» T.: «Sharq» nashriyoti,2008
2. Quronov D. «Qalblarni larzaga slogan xirgoyi» <https://ziyouz.uz/author/davronbek/>

3. Togay Murod. «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi» T.: «Zukko kitobxon»,2023